



TASDIQLAYMAN

“UMS” MCHJ Bosh direktori

S.X. Aripov

2024-yil “24” 12

**«UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS» MCHJ
MONOPOLIYAGA QARSHI KOMPLAYENS XAQIDAGI 2024-YIL HISOBOTI**

1. O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiliga kiritilayotgan o‘zgartirishlar yuzasidan tizimli monitoring qilinib borildi.

Ushbu yilning 2024 yil 1 mayda qabul qilingan “Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 256- sonli qarori,

29.12.2023 yilda qabul qilingan “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta’sirini baholash tartibi to‘g’risidagi nizomni hamda insofsiz raqobatni aniqlash metodikasini tasdiqlash haqida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 694 sonli qarori,

29.12.2023 yilda qabul qilingan “Narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi lozim bo‘lgan tovarlar narxlarining (tariflarining) shakllanishi hamda qo’llanilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 722-sonli qarori, urganildi.

Ushbu normativ huquqiy hujjatlarning Kompaniya faoliyati uchun oqibatlari tahlil qilindi va yangi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta’minalash bo‘yicha tegishli tavsiyalar tayyorlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish Qo‘mitasi tomonidan yuqorida ko’rsatilgan qarorlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini kengroq tushuntirish maqsadida joriy yilning 22-may kuni tashkillashtirilgan ochiq muloqot shaklida amaliy-seminarda Kompaniya xodimlari ishtirot etdilar.

2. Kompaniyaning monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzilishi xavflarni aniqlash maqsadida funksiyalar tahlil qilinib Xavflar xaritasi tuzildi va Bosh direktorning 2024 yil 11 yanvardagi 01/0058-II sonli buyrug’i bilan tasdiqlandi.

3. Kompaniyaning monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzilishi xavfi mavjud bo‘lgan funksiyalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining buzilishi xavfini kamaytirish bo‘yicha 2024-yil uchun Yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan va Bosh direktorning 2024 yil 11 yanvardagi 01/0058-II sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan.

4. Kompaniya faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligining talablariga rioya etilishini ta’minalash bo‘yicha bajarilgan ishlari:

4.1. O‘zbekiston Respublikasining davlat xaridlari sohasidagi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta’minalash va xaridlarni amalga oshirish faoliyatida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik

maqsadida komplayens xizmati tomonidan xaridlar ishtirokchilari va xarid komissiyasi a'zolari orasida qarindoshchlik va boshqa aloqalar mayjud/mavjud emasligi tekshirib borilmoqda. Hozirgi kunga manfaatlar to'qashuvni holatlari aniqlanmagan.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 42-moddasida nazarda tutilgan holatlari aniqlangan taqdirda, ishtirokchi(lar) xarid jarayonida qatnashishdan chetlashtiriladi. Jumladan, 2024-yil yakuni bo'yicha 260 nafar xarid ishtirokchilari o'rganib chiqildi va affillanganlik holatlari aniqlanmadи.

4.2. Xarid hujjatlariga raqobatni cheklovchi shartlar kiritilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida komplaens bo'limi har bir xarid hujjatlarini ekspertizadan o'tkazadi.

4.3. Monopoliyaga qarshi kurashish qonunchiligi talablarini joriy etish maqsadida Kompaniya ichki hujjatlarining loyihalarini tasdiqlashda kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga komplayens bo'limi boshlig'i kiritildi. Shuningdek, Ichki hujjat loyihalari monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga riosa etilishi yuzasidan ekspertizadan o'tkazib borilmoqda.

4.4. Kompaniyaning marketing faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi talablariga riosa etilishini ta'minlash maqsadida Reklama-axborot materiallari (RAM), shuningdek saytda joylashtiriladigan axborotni kelishishda komplayens bo'limi boshlig'in kelishiladigan shaxslar ro'yxatiga kiritildi.

5. Xodimlarning O'zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshi qonunchiligi sohasida huquqiy ongini oshirish yuzasidan bajarilgan ishlar:

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish Qo'mitasi tomonidan tashkillashtirilgan Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha kurslarida Kompaniyaning ikkita nafar xodimi ishtirok etib malakasini oshirdi.

6. Kompaniya faoliyatida monopoliyaga qarshi qonunchilik buzilishi xatarlarini aniqlash yuzasidan bajarilgan ishlar:

6.1. Monopoliyaga qarshi kurashish organi tomonidan yuborilgan xatlar tizimli ravishda tahlil qilinmoqda. 2024-yilning yakuniga ko'ra 63 ta xat o'rganib chiqildi. Kompaniya tomonidan qonun buzilishi holatlari aniqlanmagan. Vakolatli organga belgilangan tartibda javob xatlari yuborilgan.

6.2. Kompaniyaning raqobatni va iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklovchi normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlari tahlili tizimli ravishda oshiriladi. Bugungi kunga o'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadи.

6.3. Kompaniya tomonidan tuzilgan shartnomalarni quydagilar yuzasidan tizimli ravishda tahlil qilinadi:

- alohida xo'jalik subyektlariga ularni boshqa subyektlarga nisbatan ustuvor vaziyatga qo'yadigan asossiz imtiyozlar, afzalliklar berish, shuningdek alohida xo'jalik subyektlariga boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlarni belgilash;

- til biriktirish va kartel kelishuvlari alomatlari mavjudligi.


Bugungi kunga o'rganishlar natijasida qonun buzilishi holatlari aniqlanmadи.

7. Monopoliyaga qarshi organ bilan yangi loyihalar va takliflarga doir ma'lumotlarni elektron pochta, telegram va rasmiy sayt orqali almashish ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish yuzasidan choralar ko'rilmoxda.

8. 2025-yil uchun monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarining buzilishi xavfini kamaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan va Bosh direktorning 2024 yil 20 dekabrdagi 01/2494-II sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Tayyorlandi:

Komplayens bo'limi boshlig'i



Maksudova O.A.